

10-SINF TARBIYA. ChSB - 1. Original variant

Sana: _____ Sinf _____

O'quvchining F.I.SH. _____

1. Abdurauf Fitratning fikricha, har bir millatning saodati va izzati yuksalishi avvalo xalqning qaysi sifatiga bog'liq hisoblanadi? (B-2 ball)

- A) Xalqning ichki intizomi va totuvligiga
- B) Davlat boshqaruv organlarining kuchiga
- C) Urf-odatlarining qadimiyligiga
- D) Millatning soni ko'pligiga

2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 10-moddasiga ko'ra, oila a'zolari o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish jarayonida nimalarni buzmasliklari shart? (B-2 ball)

- A) Oila ichidagi umumiy qoidalar tartibini
- B) Boshqa a'zolarning huquq va erkinliklarini
- C) Ota-onalar belgilagan talablarni
- D) Jamoatchilik tomonidan qo'yilgan me'yorlarni

3. Insonning jisman eng kichik, ammo mas'uliyat va vazifasi jihatidan katta e'tiborga loyiq a'zosi to'g'ri berilgan javobni toping. (B-2 ball)

- A) Quloq B) Yurak C) Til D) Barmoq

4. Mashhur tadbirkor Henri Ford jurnalist bergan savoliga qanday javob bergan?

- A) "Kim bo'lsam ham, bolalarim yonida bo'lsa bas"
- B) "Kim bo'lsam ham, rafiqam yonida bo'lsa bo'ladi"
- C) "Kim bo'lsam ham, do'stlarim yonida bo'lsa yaxshi"
- D) "Kim bo'lsam ham, ustozlarim yonida bo'lsa yetadi"

5. Oilada ota – fayz-baraka, ibrat timsoli, ona – mehr-muhabbat, tarbiya o'chog'i, farzand esa ...dir. Nuqtalar o'rniga kerakli javobni aniqlab, fikrni yakunlang. (Q-2,8 ball)

- A) Oilaviy qadriyatlar yakunlovchisi B) Mehr va e'tibor namunasi
- C) Go'zal tarbiya merosxo'ri D) Tarbiya o'chog'ining boshlovchisi

6. Muloqot sifati insonning go'zal xulqi uning tavozezi, shirinsuxanligi va samimiyligi bilan o'lchanadi. Quyidagi qaysi harakat ushbu fikrga to'liq mos keladi?

- A) Suhbatdoshingning so'zini bo'lib, o'z fikrini tezda aytadi
- B) Muloqotda samimiy, shirinsuxan bo'lib, suhbatdoshini tinglaydi
- C) Suhbat davomida faqat o'z manfaatini ilgari suradi
- D) Kim bilan gaplashayotganini ahamiyatga olmay, baland ovozda gapiradi

7. Dinning vazifalarini o'zaro moslashtiring. (Q-2,8 ball)

1. Birlashtirish vazifasi:	a) inson boshiga og'ir musibat tushganda
2. Tasalli berish vazifasi:	o'ziga dindand taskin beruvchi, yupatuvchi kuch topadi;

	b) insonlar orasida hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi; c) insonni to'g'ri yo'ldan adashtiradi.
--	---

A) 1-a, 2-c B) 1-a, 2-b C) 1-c, 2-b D) 1-b, 2-a

8. Quyidagi fikrlardan qaysilari dinning jamiyat va inson hayotidagi ijobiy roliga to'liq mos keladi? (Q-2,8 ball)

- 1) insonlarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlaydi
- 2) atrofdagilarga zarar yetkazishni targ'ib qiladi
- 3) inson hayotini qadrlashga chaqiradi
- 4) insonni ruhan va jismonan poklashga undaydi
- 5) jamiyatda tartibsizliklar keltirib chiqaradi

A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 1, 2, 5 D) 3, 4, 5

9. Mahallangizda hashar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Hashar kuni ayrim yoshlar telefon o'ynab o'tirgan, ba'zilar esa qayerdan boshlashni bilmay turgan bir vaqtda katta yoshli ayol sizdan yordam so'rab, barglarni yig'ib qo'yishga chaqirdi. Ushbu vaziyatda sizning eng to'g'ri va mas'uliyatli harakatingiz qaysi bo'ladi? (Q-2,8 ball)

- A) Telefon o'ynab o'tirgan yoshlarga qo'shib, vaziyatdan bexabar bo'lib turgandek o'zini tutish
- B) Oqsoqolning ko'rsatmalarini kutmasdan, o'zingizcha ish boshlash
- C) Katta yoshli ayolga ko'maklashishi va mahalla oqsoqoli yoniga borib, vazifani aniqlab olish
- D) Faqat katta yoshli ayol aytgan ishni bajarib, keyin bolalar bilan telefon o'ynash

10. "Charog'on" mahallasida turli millat vakillari birga yashaydi. Har yili "Mehr-oqibat haftaligi" doirasida Murod aka o'z uyida ekologiya mavzusida kichik ko'rgazma tashkil qiladi. U mahalladagi bolalarga bepul ko'chatlar ulashib, ularni daraxt ekishga chorlaydi. Tadbirda barcha faol ishtirok etishadi. Murod akaning bu ishiga qanday baho berish mumkin? (Q-2,8 ball)

- A) Faqat o'z qiziqishini barchaga namoyon qilmoqda
- B) Qo'shnilariga maqtanish uchun tadbir o'tkazib, o'z manfaatini ko'zlamoqda
- C) Mahalladagi farzandlarga mehnat qilishni majburiy yuklamoqda
- D) Turli e'tiqod vakillari o'rtasida mehr-oqibat va ekologik mas'uliyatni targ'ib qilmoqda

11. Turli dinlarning muqaddas manbalarini tahlil qilganda, ularning barchasi insoniyat tinchligi va barqarorligiga tahdid soluvchi qanday illatlarni qat'iy rad etishi ko'rinadi? (Q-2,8 ball)

- A) Dinlar faqat marosimlarni muhim deb biladi
- B) Dinlarda bir xil taqiqlangan illatlar mavjud emas
- C) Dinlar nohaq qon to'kish, zo'ravonlik va buzg'unchilikni rad etadi
- D) Dinlar insonparvarlik g'oyalari qarshi chiqadi

12. Barcha diniy ta'limotlarda kishilarga nohaq jabr yetkazish, xususan ularning qadr-qimmatini poymol qilish qoralangan. Bu tamoyil jamiyatda nimani rivojlantirishga xizmat qiladi? (Q-2,8 ball)

- A) Faoliyatni tezroq yakunlash
- B) Adolat va hurmatni oshirish
- C) Shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yishni
- D) Bahs-munozarani kuchaytirish

13. Bahor oylarida "Do'stlik" mahallasida umumiy obodonlashtirish ishlari boshlandi. Qo'shnilar birgalikda yo'laklarni supurib, gullar ekib, daraxtlarni oqladilar. Bolalar esa kattalarga ko'maklashib, chiqindilarni yig'ib bordilar. Ishlar tugagach, mahalla ahli xursandchilik bilan bir dasturxon atrofida suhbat qurishdi. Bu holatdan qanday xulosa qilish mumkin? (Q-2,8 ball)

- A) Bahorda faqat ob-havo yaxshi bo'lgani uchun hashar uyushtiriladi
- B) Mahallada faqat yoshlarga tashabbus ko'rsatadi
- C) Mahalla aholisi faqat gul ekishni yaxshi ko'radi
- D) Mahalla aholisi o'zaro hamjihatlik va birdamlikda yashaydi

14. Bir tanishingiz yaqin insonini yo'qotdi va juda qayg'uda. U bilan suhbatlashganingizda ruhiy holati juda yomon ahvolda. Ushbu vaziyatda sizning eng to'g'ri harakatingiz qanday bo'lishi kerak? (Q-2,8 ball)

- A) Qayg'usini hazil bilan yengilashtirishga urunib ko'rish
- B) Ruhiy tasalli berishga harakat qilish
- C) Iloji boricha u bilan suhbatlashmaslik
- D) Faqat o'z manfaatidan kelib chiqib harakat qilish

15. Umida har kuni ishga borar ekan, mahallasidagi yolg'iz yashaydigan onaxonga non va sut olib kiradi. U bu ishni hech kimga aytmaydi, qilgan yaxshiligidan o'zi huzur topadi. Bir kuni dugonalari undan: "Seni doimo xursand va mamnun yurishingni siri nimada?" deb so'rashdi. Umida jilmayib: "Baxtni uzoqdan izlamayman" dedi. Umidaning "baxtni uzoqdan izlamayman" degan fikridan qanday xulosa chiqarish mumkin? (M -4 ball)

- A) Baxtni faqat zarurat tug'ilganda topamiz
- B) Baxt yovuz insonlar bilan bo'lganda keladi
- C) Baxt insonning ezgu va go'zal amallarida yashaydi
- D) Baxtni umuman topib bo'lmaydi

